

## MUSIQA DARSLARINI TARIX FANLARI BILAN BIR-BIRIGA BOG‘LIQLIK TAMOYILLARI

O‘tkir To‘g‘ulov,

JDPI o‘qituvchisi

**Annatatsiya:** Ushbu maqolada musiqa fanlarini boshqa fanlar bilan bir biriga bog‘liqlik prinsiplari va uni dars jarayoniga olib kirish to‘g‘risida fikr bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar:** mustaqillik, musiqa, prinsip, jamiyat, talim, tarbiya, ong, tizim, sho‘ro tuzumi, ilm-fan, kasb- xunar.

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so‘ng jamiyat taraqqiyot yo‘li va bosh maqsadi belgilandi. Ya‘ni, rivojlangan, demokratik huquqiy jamiyat qurish jamiyatning asosiy ko‘zlagan maqsadiga aylandi. Bu jamiyatni qurish uchun shu jamiyat quruvchilarini, ya‘ni har rivojlangan barkamol avlodni, komil insonni tarbiyalab yetishtirish zaruriyati paydo bo‘ldi. Sho‘rolar tuzumi davri dunyoqarashi bilan yangi avlod dunyoqarashi o‘rtasida ziddiyatlar va tafovutlar hosil bo‘ldi.

«... Ta‘lim - tarbiya - ong mahsuli, lekin ayni vaqtda - ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan omillar. Binobarin, ta‘lim-tarbiya tizimini o‘zgartirmasdan turib ongni o‘zgartirib bo‘lmaydi. Ongni, tafakkurni o‘zgartirmasdan turib esa biz ko‘zlagan oliy maqsad –ozod va obod jamiyatni barpo etib bo‘lmaydi... Lo‘nda qilib aytganda, bugungi kunda oldimizga qo‘ygan buyuk maqsadlarimizga, ezgu niyatlarimizga erishishimiz, jamiyatning yangilanishi, hayotimizning taraqqiyoti, uning quruvchilari bo‘lgan barkamol avlod, komil insonni tarbiyalash, jamiyat istiqboli amalga oshirilayotgan islohotlarimiz, rejalarimizning samarasi taqdiri-bularning barchasi, avvalom bor, zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali, ongli mutaxassis kadrlar tayyorlash muammo bilan chambarchas bog‘liqligini barchamiz anglab yetmoqdamiz»<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> 1. Каримов И.А. Юксак маънавият - енгилмас куч. - Т.: «Маънавият», 2008. -176 б.

Shuning uchun ham mustaqillikning dastlabki yillaridanoq butun mamlakat miqyosida ta'lim-tarbiya, ilm-fan, kasb-hunar o'rganish sohalarini isloh qilishga nihoyatda katta zaruriyat sezila boshladi. Busiz jamiyatimizning biron-bir sohasini o'zgartirishga kiritib bo'lmadi. Islohatlarning taqdiri va samarasi birinchi navbatda kadrlarning saviyasiga, ularning zamon va taraqqiyot talablariga nechog'lik javob berishiga taqalib qolar edi. Yurtimizning ertangi hayoti va taqdiri shu muammolarni yechish bilan bog'liqligini har qaysi fikrlovchi odam anglashi qiyin emas.

Ushbu muammolarni yechish uchun ta'limdagi yuzakichilikdan voz kechish, har bir soha, xar bir fanni zamon talabi darajasida aniq, ravon, tushunarli tarzda o'qitish, buning uchun esa, ta'lim berishdagi ilg'or ish tajribalaridan, dars o'tishning samarali metodlaridan va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda mahorat bilan dars o'tadigan o'qituvchi kadrlar zarur. Har bir soha, har bir fan bo'yicha dars beruvchi o'qituvchi o'z fanini mukammal bilishi, uni yosh avlodga o'rgatish uchun bo'ladigan barcha qiyinchilik va muammolarga bardoshli bo'lishi, chigalliklarni oqilona hal qilmog'i kerak. Eskicha ishlash, erishilgan natijalarni oshirib ko'rsatish, sifat o'rniga son ketidan quvish endilikda o'z-o'zimizni aldashdan, ko'z bo'yamachilik qilishdan boshqa narsa emasligini hammamiz bilib oldik.

Yosh avlodning ilmiy va hayotiy dunyoqarashini kengaytirish o'qitish ishiga qo'shib olib boriladigan zarur pedagogik jarayondir. Bunga erishmoq uchun fanlarni I - darajali yoki II - darajali fanlar toifasiga ajratmasdan, balki bu fanlarning jamiyatimiz taraqqiyotiga qo'shayotgan hissasiga asosan, kundalik turmushimizdagi bu fanlarga ehtiyojimiz asosida fanlarni bir-biriga uzviy bog'liq holda, kompleks ta'limni joriy qilish uchun kurashmoq zarur<sup>2</sup>. [9-43].

Ayrim fanlarni bolalarning yaxshi o'zlashtira olmaganligi hayotda darhol o'zining aks sadosini beradi. Masalan: Ona tili grammatikasini yaxshi bilmagan bola biror ma'lumotni xatosiz yozib bera olmaydi, yoki matematik

---

<sup>2</sup> Б.С.Абдуллаева. *Фанлараро алоқадорлик турлари ҳақида. Узлуксиз таълим. –Т.: 2005-йил. №1-сон.*

amallarni yaxshi bilmagan bola narsa va buyumlarni sanash, ko'paytirish, yoki savdo ishlarini bajara olmaydi. Buni aniqlash uchun uzoq muddat kutish shart emas. Lekin, shunday fanlar borki, bu fanlardan bolaning yaxshi o'qimaganligi, o'qisa ham to'g'ri xulosa chiqarmaganligi, uqumaganligini darhol aniqlash qiyin, bu asosan gumanitar fanlar, tasviriy san'at, musiqa, mehnat va jismoniy tarbiya fanlaridir. Ularning natijasini aniqlash uchun uzoq muddat lozim bo'ladi.

Hech bir fan, yoki soha o'zi alohida rivojlana olmaydi. Fanlar va ilm sohalari doimo bir-birini taqazo etadi, ular bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Ularni ajratish taraqqiyot zanjirini uzish demakdir.

Insoniyat paydo bo'libdiki, u tabiatning o'zi uchun mavhum bo'lgan sirlarini bilishga intiladi. Bunday intilish fanlarning paydo bo'lishiga asos soldi. Chunki tabiatning insonga ma'lum bo'lmagan siru sinoatlari juda ham ko'p bo'lib, ularni bir fan ko'lamiga sig'dirib bo'lmaydi. Shu sababli ular sohalarga va yo'nalishlarga ajartilgandir<sup>3</sup>. [9-45]. Dastlab tabiatni o'rganishga intilgan inson keyinchalik jamiyat qurilishini, davlat tuzimlarini, insonlar o'rtasidagi munosabatlarni o'rganishga ham intila boshladi. Insonning tabiatni o'rganishga bo'lgan intilishlari tabiiy fanlar (aniq)ni vujudga keltirgan bo'lsa, jamiyatni bilishga bo'lgan intilishi gumanitar fanlarning vujudga kelishiga sabab bo'ldi.

Ushbu ikki yo'nalishdagi fanlarning zamirida uchinchi yo'nalish bo'lgan amaliy fanlar vujudga keldikim, bu fanlar o'zidan oldingi har ikki yo'nalishga ham dahldor, ulardan foydalanadi va ularni to'ldiradi.

Fanlarning bir-biriga bog'liqligi nuqtai nazaridan qaralganda har bir yo'nalishdagi fanlar avvalo o'z guruhidagi fanlarga ko'proq bog'liqdir. Chunki ular bejiz yo'nalishlarga bo'linmagan. Lekin, shuni ham aytish lozimki bir yo'nalishda bo'lgan fanlarning barchasi ham bir-biriga bog'liqlik nuqtai nazaridan shu fanning boshqa yo'nalishdagi fanlar bilan bog'liqlik darajasidan kuchli emas. Masalan, aniq fanlar yo'nalishidagi fizika fani bilan ximiya fanini taqqoslaydigan bo'lsak, har ikkala fan ham moddaning eng kichik zarralari bo'lmish atomlardan boshlab o'rganadi, lekin shunga qaramay bu fanlarning bir-biriga bog'liqlik

---

<sup>3</sup> Б.С.Абдуллаева. *Фанлараро алоқадорлик турлари ҳақида. Узлуксиз таълим. –Т.: 2005-йил. №1-сон.*

darajasi kam. Yoki, amaliy fanlar bo‘lmish tasviriy san’at va musiqa bir yo‘nalishda bo‘lishidan va ikkalasi ham san’atning turlari bo‘lishidan qat’iy nazar bir-biriga bog‘liqlik darajasi kamdir.

Demak, fanlarning bir-biriga bog‘liqlik darajasini ikki turga, ya’ni kuchli bog‘liqlik va kuchsiz bog‘liqlik darajalariga bo‘lish mumkin. Shu nuqtai nazardan qaraydigan bo‘lsak matematika, falsafa, tarix va mantiq fanlari barcha yo‘nalishdagi fanlar bilan kuchli darajada bog‘liq ekanligini ko‘ramiz. Qolgan fanlar esa bir-biri bilan u yoki bu darajada bog‘liqdir. Qaysi fanlarning bir-biriga bog‘liqlik darajasi kuchli bo‘lsa bu fanlarni o‘qitish jarayonida ushbu fanlarga murojat ko‘proq qilinadi. Musiqa fanlarini o‘qitish ham xuddi shunday matematika, tarix, falsafa, mantiq, til va adabiyot, jismoniy tarbiya fanlari bilan kuchli darajada bog‘liq bo‘lib, musiqa fanlarini o‘qitish jarayonida ushbu fanlarga qo‘proq murojaat qilinadi. Shu sababli musiqa fani o‘qituvchisi yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan fanlarni yaxshi bilishi, ushbu fanlar taraqqiyotida sodir bo‘layotgan o‘zgarish va yangiliklardan xabardor bo‘lishi zarur. Aks holda o‘z mutaxassisligi bo‘yicha o‘qituvchi bolalarga to‘laqonli bilim bera olmaydi. Masalan: Sobiq tuzim davrida bizni o‘z yurtimiz, millatimiz, qadriyatlarimiz tarixini o‘rganishimizga yo‘l bermadilar. Buyuk ajdodlarimiz bo‘lmish Jaloliddin Manguberdi, Muso al Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy, Abu Nasr al-Farobiy, Ismoil Buxoriy, At-Termiziy, Boxovuddin Naqshbandiy, Abulqosim Mahmud az-Zamahshariy, Paxlavon Mahmud, Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur<sup>4</sup> kabilarning hayot yo‘llaridan juda kam xabardor edik, ularning ayrimlarini umuman bilmas edik. Istiqlool sharofati bilan ularning qadriyatlari tiklandi. Qadim shaharlarimizning yoshi aniqlanmokda. Demak tarix fanlarida tubdan o‘zgarishlar sodir bo‘lmoqda. Bunday o‘zgarish va yangiliklardan bexabar musiqa o‘qituvchisi yoki boshqa biror fan o‘qituvchisi tarix fani bilan bog‘liq mavzularni qanday qilib o‘quvchi yoshlarga to‘laqonli yetkazib berish mumkin?

---

<sup>4</sup> *T.E.Соломонова. Ўзбек музыкаси тарихи. –Т.: “Ўқитувчи” нашриёти. 1981-йил.*

Ijtimoiy gumanitar fanlar ichida asosiylaridan biri tarix fani hisoblanadi. Bu fan yer yuzida hayot nishonalari paydo bo'la boshlagan davrlardan boshlab kechayotgan ijtimoiy voqea va hodisalarni, ularning kelib chiqish sabablarini, voqealarning kechish jarayonini va keltirib chiqargan oqibatlarini ilmiy asosda o'rganuvchi, tahlil qiluvchi muhim ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan fandır. Tarix fanining asosini vaqt tushunchasi belgilaydi va shuning uchun ham bu fan falsafa fanining uzviy ajralmas qismidir. Chunki, kishilik jamiyati hayotida bo'lib o'tgan barcha voqea va hodisalar ma'lum bir vaqtda, yoki davrda sodir bo'ladi. Biz bu voqealar va hodisalar kechgan davrni umumlashtirib tarixiy davr deb ataymiz. Insoniyat tarixi juda uzoq davrni, ya'ni ko'p ming yillik rivojlanish jarayonini o'z ichiga olganligi, bu davrlarda bo'lib o'tgan tarixiy voqea va hodisalar ko'lamida juda keng bo'lganligi sababli biz tariximizni bosqichlarga bo'lib o'rganishimiz maqsadga muvofiqdir.

Shu sababli ham insoniyat ijtimoiy rivojlanish tarixi asosan uch bosqichga, ya'ni qadimgi dunyo tarixi (ibtidoiy davrdan to eramizning III-IV asrlargacha bulgan davr), urta asrlar tarixi (Eramizning IV asrlaridan XVII asrigacha bulgan davr), Yangi tarix (XVII asrdan XX asr II yarmigacha bulgan tarixiy davr), eng Yangi tarix (XX asr II yarmi va shu kunlar voqea va hodisalarini aks ettiruvchi tarix)<sup>5</sup>. Shuni aytish kerakki, bu tarixiy bosqichlarda eng uzoq davrni qadimgi Dunyo tarixi egallaydi va uning ilmiy izlanish manbalari asosan arxeologik topilmalar va qisman yozma manbalar bo'lib, olimlarning va arxeologlarning ilmiy izlanishlarining muntazam davom etishi bu davr tarixiga yangi-yangi ma'lumotlar, dalillar hadya qilishi evaziga bu davr tarixi to'g'risidagi tasavvurlar o'zgarib borishi mumkin. Shuningdek, ilmiy izlanishlar va topilayotgan tarixiy ashyolar, qo'l yozmalar tahlili o'rta asrlari tarixi hamda undan keyingi davr tarixi to'g'risidagi tushunchalarimizni yanada boyitishi va balki qisman o'zgartirishi mumkin.

---

<sup>5</sup> Т.Е.Соломонова. *Ўзбек музикаси тарихи*. –Т.: “Ўқитувчи” нашриёти. 1981-йил.

Musiqa fanlarini o'qitishning tarix fani bilan bog'lanish darajasini quyidagicha izohlash mumkin.: Avvalo tarix fanining musiqiy fanlar bilan umumiy bog'liklik jihatlariga razm solish lozim. Insoniyatning rivojlanish tarixi ham mavjud. Musiqa madaniyati esa, avvalo shu xalkning umumiy madaniyati tarkibiy qismidir. Xalqlar madaniyati esa uning yashash tarzi, turmushi va kundalik hayotini aks ettiradi. Xalqlar yashash tarzi, turmushi va kundalik hayoti ma'lum bir tarixiy taraqqiyot bosqichlarini bosib o'tgan bo'lib, xuddi shunday bosqichlarni xalqlar madaniyati, jumladan musiqa madaniyati ham bosib o'tgan. Mana shu jihatdan ham tarix va musiqiy fanlar bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir<sup>6</sup>. O'quvchilarga musiqa fanini boshqa fanlar bilan bog'lab olib borish muhim ahamiyatga ega ekanligini dars olib borishda suhbat, hikoya metodlaridan foydalanish dars samaradorligini oshirishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Darsda fanlarni bir-biriga bog'liq holda bolalarga tushuncha berishdan ko'zlangan maqsad, avvalo shu mavzuning mazmunini o'quvchilar tushunib yetishini osonlashtirish, ularga berilayotgan tushunchalar ko'lamini kengaytirish, qolaversa musiqa o'qituvchisining ham bilim doirasi kengayishidir. Bu bilan ham o'qituvchining, ham o'quvchi yoshlarning tariximizni to'laqonli o'rganishiga erishamiz.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. - T.: «Ma'naviyat», 2008. - 176 b.
2. Yarseva S.Ye. Didakticheskoe modelirovanie samostoyatelnoy raboti studentov: Diss. kand.ped.nauk. - T.: TGPI im.Nizami, 1991.-S.221.
3. Yuzlikaev F.R. Teoreticheskie osnovn intensivatsii nachalnoy professionalnoy adaptatsii molodix uchiteley.-T.,1993.-S106.
4. G'oziev E. Oliy maktab psixologiyasi. - T.: «O'qituvchi», 1997.-104 b.
6. T.Ye.Solomonova. O'zbek musiqasi tarixi. –T.: “O'qituvchi” nashriyoti. 1981-yil.

---

<sup>6</sup> T.E.Соломонова. Ўзбек музикаси тарихи. –Т.: “Ўқитувчи” нашриёти. 1981-йил.

7. I.Rajabiy. Maqomlar masalasiga doir. –T.: “Badiiy adabiyot” nashriyoti. 1963-yil.
8. J.To‘lenov, Z.G‘afurov. Falsafa. –T.: “O‘qituvchi” nashriyoti 1997-yil.
9. B.S.Abdullaeva. Fanlararo aloqadorlik turlari haqida. Uzluksiz ta’lim. –T.: 2005-yil. №1-son.